

## BIBIONA ARXEOLIGIK YODGORLIGINI O'RGANILISH TARIXI

**Bekmirzayev Islomjon Ibrohim o'g'li**

O'z R FA Milliy arxeologiya markazi tayanch doktoranti

[bekruchka@gmail.ru](mailto:bekruchka@gmail.ru)

### ANNOTATION

This article presents the archaeological researches and their achievements in the settlement of Bibiona, which is located on the banks of the Chust stream, in the middle course of the Govasoy, located in the Northern Fergana valley. Also, it was emphasized that the archaeological researches, which started in 1950 and are still ongoing, and their results are a valuable monument in restoring the archeology and history of Uzbekistan, and the period of archaeological research was divided into 3 stages by the author.

### Key words

Fergana valley, Govasai middle tributary, Bibiona archaeological monument, Bronze Age, farming culture, Archaeological excavation.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shimoliy Farg'ona vodiysida joylashgan G'ovasoy o'rta oqimida Chust soy bo'yida joylashgan Bibiona manzilgohida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning yutuqlari keltirilgan. Shuningdek 1950-yilda boshlangan va xaligacha davom etib kelayotgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari O'zbekiston arxeologiyasi va tarixini tiklashda qimmatli yodgorlik ekanligi takidlab o'tilgan va arxeologik o'rganish davrini muallif tomonidan 3 bosqichga ajratilgan.

### Kalit so'zlar

Farg'ona vodiysi, G'ovasoy o'rta irmog'i, Bibiona arxeologik yodgorligi, bronza davri, dehqonchilik madaniyati, Arxeologik qazishma.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены археологические исследования и их достижения на городище Бибиона, расположенном на берегу ручья Чуст, в среднем течении Говасоя, расположенного в Северной Ферганской долине. Также было подчеркнуто, что археологические исследования, начатые в 1950 году и продолжающиеся до сих пор, и их результаты являются ценным памятником в восстановлении археологии и истории Узбекистана, а период археологических исследований был разделен автором на 3 этапа.

### Ключевые слова

Ферганская долина, средний приток Говасай, археологический памятник Бибиона, эпоха бронзы, земледельческая культура, археологические раскопки.

G'ovasoy vohasi Farg'ona vodiysining shimolida joylashgan bo'lib, bugungi kunda vohada noyob arxeologik ob'yektlar ro'yxatga olingan. Ularning orasida eng qadimiysi Bibionamozor (Buvanamozor) hisoblanadi. Bu manzilgohining topilishi vodiyning dehqonchilik bilan shug'ullangan aholisi tarixining eng ilk bosqichini o'rganishga asos bo'ldi. Qadimgi chustliklar hayotida 3 ta xo'jalik tarmog'i o'ziga xos o'rin egallagan: dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik. Aynan ushbu xo'jalik turlari asosida shakllangan manzilgoh fanga tadqiqotchilar tomonidan Chust madaniyati nomi bilan tarixga kirdi. Mazkur manzilgoh egalari dehqonchilikda asosan, boshqali o'simliklar yetishtirgan. Don mahsulotlari strategik ahamiyatga ega bo'lganligi uchun ularni yaxshilab suvalgan maxsus o'ralarda saqlangan<sup>56</sup>. Mazkur yodgorlik Farg'ona vodiysining shimoli-g'arbiy qismida, Chust shahridan 2,5 km. shimolda, Namangan shahridan 45 km. g'arbda va G'ovasoy vohasining o'rta oqimida joylashgan. Ushbu hududda antropogen landshaftning tashkil topishi mil. avv. II–I ming yilliklarni o'z ichiga oladi<sup>57</sup>.

Bu yodgorlik 1950 yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti va Tarix muzeyi otryadi M.E. Voronets tomonidan o'rganilgan. U Pomir-Farg'ona ekspeditsiyasi tarkibida ishlagan<sup>58</sup>. U o'z tadqiqotlarini 2 maqsad asosida boshlagan. 1- maqsad Chotqol tog' tizmasining janubiy qismida joylashgan "mug'xona" lar muammosini xal qilish. 2-maqsad Namangan viloyati Chust tumanidan topilayotgan sopol buyumlarni o'rganish. 1951 yilda M.E. Voronets

<sup>56</sup> Anarbayev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularni markaziy osiyo tarixida tutgan o'rni. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021. – B. 17

<sup>57</sup> Заднепровский Ю. А. Ошское поселение: к истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек: Мура, 1997.

<sup>58</sup> Воронец М.Э. Археологическая рекогносцировка 1950 г. по Наманганской области. – Известия АН УзССР. № 5. Ташкент, 1951. С. 95.

umumiy maydoni 40 kvadrat metrli bo'lgan 2 ta kvadratda birinchi qazishmalarni amalga oshirdi. Qazishmalarda birinchi marta madaniy qatlamni topdi va sopol buyumlar, tosh hunarmandchilik va don qirg'ichlari, shuningdek, bronza buyumlar parchalarini to'pladi. O'sha davrda ma'lum bo'lgan Anau madaniyatining bo'yalgan kulolchilik buyumlari bilan umumiy o'xshashligidan kelib chiqib, u Chust manzilgohini miloddan avvalgi 3-2 - ming yilliklar boshlarida sana bergan<sup>59</sup>. 1953 - 1961 yillarda 9 yillik qazishmalar davomida V.I. Sprishevskiy aholi punktida keng ko'lamli statsionar planigrafik tadqiqotlar olib bordi. U Farg'ona vodiysidagi qadimgi dehqonlarning xo'jaligi, madaniyati va hayotining turli qirralarini to'liq tasvirlab berishga hamda aholi hayotini uch davrini ajratib ko'rsatishga imkon bergan boy arxeologik materiallarni to'playdi. Chust bronza davri manzilgohi 3 ta qurulish davri bilan belgilanadi: 1 davr. mudofaa devorlarini qurishdan oldingi vaqt; 2 davr - mudofaa devorlari mavjud bo'lgan davrga; Aholi punkti faoliyatining 3 davri - mudofaa devorlari vayron bo'lganidan keying davr etib belgilaydi<sup>60</sup>. Umuman olganda, aholi punkti eramizdan avvalgi 2-1 - ming yilliklar boshiga to'g'ri kelgan. Tadqiqotchi chust manzilgohi haqida o'zining disertatsiyasida atroflicha malumot bergan. 1958, 1959 va 1967-yilda Namangan o'lkashunoslik muzeyi xodimi Y.G.Chulanov shimoliy Farg'ona xududida tadqiqotlar olib bordi. Tadqiqotlar davomida Chodak, G'ovasoy va Kosonsoy bo'yida joylashgan mug'xonalar o'rganildi va topilmalar Tojigiston xududidan topilgan mug' idishlar bilan solishtilidi<sup>61</sup>. Y.G.Chulanovning arxeologik qidiruv tadqiqotlari davomida bir nechta bronza davriga oid manzilgohlar topildi. Bu mazilgohlardan topilayotgan sopollar chust madaniyatiga oidligi aytib o'tildi<sup>62</sup>. Tadqiqotchi Kosonsoydagi Tergachi, To'raqo'rg'on va G'ovasoy o'ng sohilida joylashgan Qoraqo'rg'on qishlog'i topilmalarini taxlil etdi va Shimoliy Farg'ona bronza davri madaniyatiga o'nga yaqin yodgorlik qo'shildi. 1974 yilda Yu.A. Zadneprovskiy Chust manzilgohini qazish ishlarini davom ettirdi. V.I. Sprishevskiy ning markaziy qazish joyining g'arbiy qismini tutashtirib, kengligi 4 m, uzunligi 40 m bo'lgan xandaq qazib o'rganildi<sup>63</sup>. Keyinchalik bu hududdagi yodgorlikka radiouglerod orqali xronologik davrga yanada aniqlik kiritildi<sup>64</sup>. Mazkur

<sup>59</sup> Воронец М.Э Археологические исследования Института истории и археологии и Музея истории АН УзССР на территории Ферганы в 1950 – 1951 гг. // В кн.: Труды Музея истории УзССР. Вып. II. Ташкент, 1954. С. 53 – 57.

<sup>60</sup> Спришевский В.И Чустское поселение (К истории материальной Ферганы в эпоху бронзы). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1963. 17 с.

<sup>61</sup> Ю. Г. Чу л а н о в. Некоторые новые памятники северной Ферганы. СА, 1967, 2. С-143.

<sup>62</sup> Ю. Г. Чу л а н о в. Новые памятники эпохи бронзы Ферганской долины. СА, 1963, 4. С-198.

<sup>63</sup> Заднепровский Ю.А. Раскопки поселений чустской культуры Ферганы. // АО. 1974. М, 1975. С. 449.

<sup>64</sup> Рузанов В. Д. Еще раз о хронологии Чустской культуры Ферганы // Российская археология. – 1999. – №4.

hudud so‘nggi bronza va ilk temir davrida Chust shahrining shimolida, G‘ovasoying irmoqlaridan biri Chustsoyning o‘ng qirg‘og‘ida Buvanamozor (Bibi ona) yodgorligi o‘rnida ilk dehqonlar qarorgohi sifatida shakllanadi. Dehqonlar suv bo‘yidagi unumdor yerlarni o‘zlashtirilishiga qarab alohida voha yoki guruh tarzida joylashgan. So‘nggi bronza va ilk temir davrida vohaga ko‘plab ko‘chmanchilarning kirib kelishi oqibatida voha hududi ancha kengaygan deb xulosa qilindi. Mualliflar B.X.Matboboev va Yu.A.Zadneprovskiy<sup>65</sup>lar tomonidan qilinga tadqiqotlar orqali Bibi ona yodgorligida 500 kvadrat metrdan ortiq maydon ochib o‘rganildi. Ushbu yodgorlikdan qazishmalar vaqtida 80 ta chuqur o‘ra-omborlar, yerto‘la va yarim yerto‘lalar ochildi va arxeologiya fani uchun g‘oyatda qimmatli ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi.

Arxeologik tadqiqotlarda mualliflar tomonida 11 ta turar joy topildi va ular uch guruhga ajratilgan: chaylaga o‘xshash yengil uylar (sinchli); yerto‘lalar va g‘isht va paxsadan qilingan uylar<sup>66</sup> va Farg‘ona vodiysining bronza davriga oid qimmatli malumotlar to‘plandi.

Farg‘onashunos arxeolog B.X.Matboboev bronza davri manzilgohini 4 davrga ajratdi:

1- davr arxeologik qidiruv davri. (1950-1951).

2-davr yodgorlikda asosiy qazishmalar davri (1953-1959).

3-davr turar-joy istehkomlarini qazish ishlari davri. (1960-1961).

4-davr stratigrafiyasini aniqlashtirish va yangi ma‘lumotlarni olish uchun takroriy tadqiqotlar davri. (1974, 1982-1983)<sup>67</sup>.

G‘ovasoy o‘rta oqimidagi Chust (Bibiona) manzilgohida arxeologik tadqiqotlar mistaqillik yillarida ham davom etib kelmoqda. Xususan 2021- yilda “G‘ovasoy vohasida antropogen landshaftning tashkil topishi va qadimgi Chust (Bibi ona) tarixi” fundamental loyihasi doirasida arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazining yetakchi ilmiy xodimlari, tarix fanlari doktori (DSc), professor, “Axsikent kompleks arxeologiya ekspeditsiyasi” rahbari A. A. Anarbaev va tarix fanlari nomzodi S. R. Baratovlar jalb etildi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar professor A. Anarbaev rahbarligida boshlandi. Mazkur yodgorlikda boshlangan arxeologik tadqiqotlar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi va Namangan davlat universiteti

<sup>65</sup> Заднепровский Ю.А. Древкеземледельческая культура Ферганы // МИА. -Моква, 1962. С.70.

<sup>66</sup> Матбобоев В. Исследование жилищ в памятниках Чустской культуры Ферганы (XII–VII вв. до н.э.) // ИМКУ. – №33. – С. 41

<sup>67</sup> Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Оборонительные сооружения древней Ферганы (кон. Птыс. до н.э. -пер. пол. I тыс. н.э.). Издательство «EXTREMUM PRESS», 2011, 23с.

“Arxeologiya” kafedrasini bilan hamkorlikda olib borildi. Qazishma ishlari olib borish uchun tanlab olingan hududda janubdan shimolga tomon yoʻnalgan parallel joylashgan 2 qator qilib, 2x2 oʻlchamda 14 ta qazish maydoni kvadratlarga ajratib olindi. Har bir qazishma orasida 50 sm. joyni qatlamlar tahlili uchun qoldirildi. Qazish uchun belgilab olingan joyda shimoldan janub tomonga qarab ikkita paralel kvadratlarni raqamlab olindi va shimoldan sharq tomonga qarab alfavit tartibida belgilab olindi. Belgilab olingan 14 ta qazish hududlarining yuqori qismidan 10 sm qalinlikdagi chim qatlami olib tashlandi<sup>68</sup>.

Fargʻona vodiysining bronza davri manzilgohi koʻp yillardan beri oʻrganilib kelinmoqda va bu arxeologik tadqiqotlar keng qamrovli olib borildi. Shuning uchun bu maqola Gʻovasoy oʻrta oqimida joylashgan birgina Bibiona manzilgohida (Bibionamozor, Bibi ona yoki Buvanamozor shaklida uchraydi. Arxeologik adabiyotlarda Chust manzilgohi shaklida uchraydi) olib borilgan arxeologik tadqiqotlar haqida fikr yuritildi. Toʻplangan yetmish yildan ortiq olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni quyidagi 3 davrga ajratishimiz mumkin: 1-davr ilk arxeologik tadqiqotlar va qidiruvlar davri.(1950-1970) 2-davr keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar davri.(1970-1985) 3- davr mustaqillik yillarida boshlangan arxeologik tadqiqotlar davrini kiritish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Anarbayerov A. Fargʻonaning qadimgi shaharlari va ularni markaziy osiyo tarixida tutgan oʻrni. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, 2021. – B. 17
2. Заднепровский Ю. А. Ошское поселение: к истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек: Мурас, 1997.
3. Воронец М.Э. Археологическая рекогносцировка 1950 г. по Наманганской области. – Известия АН УзССР. № 5. Ташкент, 1951. С. 95.
4. Воронец М.Э Археологические исследования Института истории и археологии и Музея истории АН УзССР на территории Ферганы в 1950 – 1951 гг. // В кн.: Труды Музея истории УзССР. Вып. II. Ташкент, 1954. С. 53 – 57.
5. Спришевский В.И Чустское поселение (К истории материальной Ферганы в эпоху бронзы). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1963. 17 с.
6. Ю. Г. Чуланов. Некоторые новые памятники северной Ферганы. СА,

<sup>68</sup> А.Анарбаев С.Баратов. Новый археологические работы на поселении Чуст-Бибиона. История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 42. Ташкент-2022. С. 210.

1967, 2. С-143.

7. Ю. Г. Чуланов. Новые памятники эпохи бронзы Ферганской долины. СА, 1963, 4. С-198.

8. Заднепровский Ю.А. Раскопки поселений чустской культуры Ферганы. // АО. 1974. М, 1975. С. 449.

9. Рузанов В. Д. Еще раз о хронологии Чустской культуры Ферганы // Российская археология. – 1999. – №4.

10. Заднепровский Ю.А. Древкеземледельческая культура Ферганы // МИА. -Моква, 1962. С.70.

11. Матбобоев В. Исследование жилищ в памятниках Чустской культуры Ферганы (XII–VII вв. до н.э.) // ИМКУ. – №33. – С. 41

12. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Оборонительные сооружения древней Ферганы (кон. II тыс. до н.э. -пер. пол. I тыс. н.э.). Издательство «EXTREMUM PRESS», 2011, 23с.

13. А.Анарбаев С.Баратов. Новый археологические работы на поселении Чуст-Бибиона. История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 42. Ташкент-2022. С. 210.